BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

HOTAMOVA IRODA IBROHIMOVNA

SUN'IY INTELLEKT VOSITASIDA INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02–Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK:37.016:811.111:004.8

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Hotamova Iroda Ibrohimovna
Sun’iy intellekt vositasida ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi ……..……3

Хотамова Ирода Ибрагимовна
Методика развития навыков говорения на английском языке посредством искусственного интеллекта.....…….... 27

Hotamova Iroda Ibrohimovna
Methodology for Developing English Speaking Skills Using Artificial Intelligence 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....57

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

HOTAMOVA IRODA IBROHIMOVNA

SUN'IY INTELLEKT VOSITASIDA INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02–Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped10342 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda “Ziyonet.uz” axborot-ta‘lim portali – (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kosheva Dilrabo Xudoyorovna** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Dilorom Yuldasheva Nigmatovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Abdujabbarova Zamira Rustamovna pedagogika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-noyabr soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (41140 raqami bilan ro’yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil 12-noyabr kuni tarqatildi.

(2026 - yil 12-noyabrdagi 27- raqamli reyestr bayonnomasi).

N.B.Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.B.Ruziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.Sh.Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim tizimi globallashuv davrida samarali muloqot qobiliyatiga ega, xorijiy tillarni puxta egallagan mutaxassislar tayyorlashni o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilamoqda. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, fan-texnika taraqqiyoti va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida xorijiy til, xususan, ingliz tilida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarni chet tilida mustaqil va erkin fikr bildirishga, turli kommunikativ vaziyatlarda faol muloqotga kirisha olishga tayyorlashni taqozo etmoqda.

Dunyoning yetakchi pedagogika oliy ta’lim muassasalari xorijiy tilni o‘qitishda innovatsion metodlarni keng joriy etib kelmoqda. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Avstraliya kabi rivojlangan davlatlarda talabalarni chet tilida og‘zaki muloqotga tayyorlashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan unumli foydalanilmoqda. Mazkur texnologiyalar orasida avtomatlashtirilgan nutq tahlili tizimlari, virtual suhbatdoshlar, interaktiv mobil ilovalar va onlayn platformalar mavjudki, ular talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni chuqur o‘qitish, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish hamda xalqaro standartlarga muvofiq raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida belgilangan ustuvor yo‘nalish sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, chet tillarini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar og‘zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish, shuningdek, raqamli va kommunikativ kompetensiyalarni mustahkamlash muhim ilmiy-amaliy masalalar sifatida oldinga surilmoqdaki, bu mazkur tadqiqotning zarurati va dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 2020-yil 5-oktabrdagi UP-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi UP-6097-son “Fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 16-oktabrdagi PP-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni IT industriyasi bilan rivojlantirish va integratsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 17-fevraldagi PP-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi G.X.Boqiyeva, J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, L.T.Axmedova, F.M.Rashidova[1] kabi yetuk olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. O‘quvchi-talabalar kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari bilan S.I.Kazakbayeva, D.Sh.Olimova, A.A.Isoqov[2]lar shug‘ullanishgan. Chet tillarni o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuv va fanlararo aloqadorlik muammolari bo‘yicha N.I.Xurboyev, A.I.Avazboyev[3], pedagogik omillar esa, I.V.Makuxina va N.J.Isaqulova[4] kabi bir qator olimlar izlanishlarida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, F.Sh.Alimov, Sh.H.Akbarova, U.A.Masharipova, G‘.Sh.Tajibayev, G.I.Hamrayeva, X.U.Saydullayeva[5] kabi tadqiqotchilarning keyingi yillardagi tadqiqotlarida ingliz tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va muammolariga oid nazariy mulohazalar o‘z ifodasini topgan. Raqamli ta’lim muhitini yaratish va unda faoliyat yuritish bo‘yicha Sh.A.Abduraxmanova, Z.R.Bakiyeva, M.R.Fayziyeva, M.E.Mamarajabov, Q.A.Bekmurotov, R.M.Zulunov[6]larning ilmiy izlanishlari e’tiborga loyiq.

---

[1] Boqiyeva G., Mahkamova G., Quldoshev A. English 3.–T., 2007.; Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi.–T.: O‘qituvchi, 2012.–430 b.; Mahkamova G.T. English Language Teaching Methodology (Theory and Practice).–T., 2015. – 300 p.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Т.: Фан ва технология, 2013. – 200 с.; Rashidova F.M. O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimida CEFRni tatbiq etishning konseptual-metodik asoslarini takomillashtirish (ingliz tili misolida): Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – T., 2017.– 67 b.

[2] Казакбаева С.И. Формирование национально-культурного уровня коммуникативной компетенции у студентов-узбеков факультетов русской филологии: Дисс. ... канд. пед. наук. – Т., 2000. – 231 с.; Olimova D.Sh. Oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish: Ped. fan. dok. (PhD). diss. –T., 2005.–170 b.; Isoqov A.A. Akademik litsey o‘quvchilarining ingliz tilida grammatik ko‘nikmalarini takomillashtirish texnologiyalari: Ped. fan. dok. (PhD). diss. – T., 2008. – 160 b.

[3] Xurboyev N.I. Chet tillarni o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuv masalalari. – T., 2019. – 150 b.; Avazboyev A.I. O‘quv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish: Ped. fan. nomzodi diss. – T., 2001.

[4] Макухина И.В. Педагогические условия формирования иноязычной коммуникативной компетенции студентов. – Москва, 2010. – 180 с.; Isaqulova N.J. Chet til o‘qitishda pedagogik omillar va ularning samaradorligi. – T., 2018. – 140 b.

[5] Alimov.F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish: Ped. fan. bo‘y. fal.dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2018. – 42 b.; Akbarova Sh.H. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o‘rgatish metodikasi: Ped. fan. bo‘y. fal.dok. (PhD) diss. avtoref.–T., 2020. – 53 b.; Masharipova U.A. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi: Ped. fan. bo‘y. fal.dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2018. – 45 b.; Tajibayev G.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tili o‘qitishda kommunikativ yondashuv: Ped. fan. bo‘y. fal.dok. (PhD) diss. avtoref.–T., 2018.–45 b.; Saydullayeva X.U. Konchilik yo‘nalishi talabalarida ingliz tilini o‘qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref.–Samarqand, 2024.–63 b.; Xamrayeva G.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini “mavzuga asoslangan yondashuv” asosida shakllantirish metodikasi (ingliz tili misolida): Ped. fan. bo‘y. fal.dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 48 b.

[6] Abduraxmanova Sh.A. Individualization of professional education process on the basis of digital technologies // World Bulletin of Social Sciences. –Vol. 8.– 2022.– P. 65–67.; Бакиева З.Р., Мухаммадхужаев Б.Б. Возможности информационно-коммуникационных технологий в формировании личности учащихся // Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018).– 2018. – P. 1233-1235.; Tursunov S.K., Mamarajabov M.E.,

MDH davlatlarida fanlarni integratsiyalash asosida ta’lim berish masalalari A.Y.Danilyuk, I.V.Kreneva, Y.S.Zagrayskaya, A.V.Gvozdeva, V.V.Levchenko kabi tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqilib, ularning ishlari chet tili o‘qitishda fanlararo aloqadorlikning nazariy va amaliy asoslarini ochib bergan. Shuningdek, rus lingvodidaktikasida I.A.Zimnyaya, A.N.Shchukin, O.A.Obdalova[7] kabi olimlarning ishlarida chet til ta’limida kommunikativ kompetensiya maslalari keng yoritilgan. A.V.Khutorskoy va M.Y.Borshcheva[8] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa, chet tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik yondashuvlar, interaktiv texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarini integratsiya qilishning metodik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Xorijiy mamlakat olimlari A.Kukulska-Hulme, Lucariello.K.L, B.M.Pratschke, Ji,H, Chunli Li, H.Ch.Chia[9] tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalarini chet tillarini o‘qitish jarayoniga integratsiyalash, talabalarda nutqiy kompetensiya va ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Axborotlashgan jamiyatda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar integratsiyasi, gibridlashuvi, transformatsiyasi: muammo va yechimlar” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish (2023-2026-yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt vositasida talabalarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sun’iy intellekt vositasida ta’lim oluvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning lingvodidaktik asoslarini aniqlash;

kommunikativ til o‘qitish metodi(CLT)ni sun’iy intellekt bilan boyitish orqali ta’lim oluvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

sun’iy intellekt vositasida ta’lim oluvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning takomillashgan modelini ishlab chiqish;

Jumanazarov S.S. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli. – T., 2017.; Fayziyeva M.R. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt. O‘quv qo‘llanma. – T.: Dimal, 2024. – 156 b.; Bekmurotov Q.A. Sun’iy intellekt. –T., 2019. –B.10.; Zulunov R.M. Sun’iy intellekt texnologiyalari. – Farg‘ona, 2024. – B.10.

[7] Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – Москва: Просвещение, 1991. – 222 с.; Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам: Теория и практика: учебное пособие для преподавателей и студентов.–Москва: Филоматис, 2006.–480 с.; Обдалова О.А. Инновационные технологии в преподавании иностранных языков. Учеб. пособие. – Томск: Том. гос. ун-т, Ин-т дистанционного образования, 2010.

[8] Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании: теория и практика. – Москва, 2003. – 256 с.; Борщева М.Ю. Формирование и развитие компетенций обучающихся в современной образовательной среде. – Москва, 2015. – 180 с.

[9] Kukulska-Hulme A. Mobile Assisted Language Learning and Artificial Intelligence in Language Education // International Journal of Mobile Learning and Organisation. – 2019.; Lucariello K. Otermans Institute debuts nine-lesson course using only AI digital human teachers// Campus Technology, 2024.; Pratschke B.M.Generative AI and Education.–University of Manchester, Manchster,UK, Springer, 2024. – P.73.; Ji, H.Han, I., Ko Y. A systematic review of conversational AI in language education: Focusing on the collaboration with human teachers//Journal of Research on Technology in Education, 55(1).– 2023. –P. 48-63.; Chunli Li, Naoko Taguchi. The Role of AI in Personalized Speaking Practice for EFL Learners//Honolulu: Language Learning & Technology, 2021. – P. 45-63.; Chia-Hao Chou. Artificial Intelligence in Language Education: Reducing Speaking Anxiety through Personalized Feedback//Amsterdam: Computers and Education: Artificial Intelligence, 2021. – P. 1023.

talabalarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish samaradorligini aniqlashda baholash mezonlarini ishlab chiqish, ularni tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda zaruriy tavsyalar berish.

Tadqiqot obyekti sifatida xorijiy til va adabiyoti: inliz tili ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalarida ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini sun’iy intellekt vositasida shakllantirish jarayoni olingan. (Tajriba-sinov ishlariga Navoiy davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti va Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetidan jami 405 nafar talaba jalb etilgan.)

Tadqiqotning predmetini sun’iy intellekt texnologiyalari vositasida ingliz tilida talabalarning gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasining shakllari, mazmuni va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga doir ilmiy va me’yoriy-huquqiy manbalarni tahlil qilish, tasniflash va qiyosiy o‘rganish, nazariy tahlil, so‘rovnoma, test, kuzatish, suhbat va tajriba-sinov kabi empirik usullardan, shuningdek, olingan natijalarni baholashda matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sun’iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning lingvodidaktik imkoniyatlari kompetensiyaviy-integrativ yondashuv asosida aniqlashtirildi, shuningdek, talabalarda gapirish ko‘nikmasining lingvistik, diskursiv, pragmatik va sotsiolingvistik komponentlarini shakllantirishda Replika, TalkPal, Speechling, Cake va Kialo Edu Elsa Speak, Speechace hamda Speechling platformalarining metodik imkoniyatlari kengligi asoslangan;

talabalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida kuzatiladigan ichki nutqni tashqi nutqqa chiqara olish muammosi CLT (kommunikativ til o‘qitish) va TBL (topshiriqlarga asoslangan ta’lim) metodikalarini sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan metodik yondashuv orqali bartaraf etish ilmiy jihatdan asoslangan;

sun’iy intellekt texnologiyalari vositasida ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kommunikativ mashqlar tizimi shaxsga yo‘naltirilganlik, onglilik, faollik, tizimlilik va ko‘rgazmalilik tamoyillari asosida ishlab chiqilib, AFTI texnologiyasi orqali oddiy nutqiy mashqlarni sun’iy intellekt platformalari bilan almashtirish, ulardan foydalanishni qulaylashtirish, metodik imkoniyatlarini kengaytirish hamda integratsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish samaradorligi lingvistik, sotsiolingvistik, sotsiomadaniy, diskursiv hamda pragmatik baholash mezonlari va kompleks diagnostik tizim asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sun’iy intellekt texnologiyalari vositasida talabalarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan takomillashtirilgan lingvodidaktik model ishlab chiqilgan hamda modelning mazmuni kommunikativ til o‘qitish (CLT) va topshiriqlarga asoslangan ta’lim (TBL) metodikalarini sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash asosida boyitilgan;

talabalarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasining lingvistik, diskursiv, pragmatik va sotsiolingvistik komponentlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan

kommunikativ mashqlar va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan hamda Replika, TalkPal, Speechling, Cake, Kialo Edu, ELSA Speak va Speechace kabi sun'iy intellekt platformalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari ta'lim jarayoniga integratsiyalangan;

sun'iy intellekt texnologiyalari vositasida talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi AFTI texnologiyasi takomillashtirilgan hamda uning asosida nutqiy mashqlarni sun'iy intellekt platformalari bilan uyg'unlashtirish, talabalarning mustaqil nutqiy faoliyatini faollashtirish va individual nutqiy amaliyotini tashkil etish imkonini beruvchi metodik ta'minot ishlab chiqilgan;

talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan lingvistik, sotsiolingvistik, sotsiomadaniy, diskursiv va pragmatik mezonlar hamda kompleks diagnostik tizim ishlab chiqilgan, tajriba-sinov ishlari natijalari matematik-statistik jihatdan tahlil qilinib, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirilgan metodikaning samaradorligi asoslangan hamda ta'lim jarayonida foydalanish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va metodlarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi nazariy manbalar, rasmiy hujjatlar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlarga tayanganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan tahlil va tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik usullar orqali baholangan bo'lib, ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotda sinovdan o'tkazildi hamda tegishli vakolatli idoralar tomonidan ma'qullanganligi hamda tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida talabalarda ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini samarali integratsiya qilishga oid metodik yondashuvlar ilmiy asosda ishlab chiqildi. Bu orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga oid nazariy qarashlar boyitilib, ularni amalda qo'llashga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar va sun'iy intellekt platformalaridan (Replika, TalkPal, Kialo Edu, Cake, Elsa Speak, Speechace, Speechling) foydalanish imkoniyatlari tizimli yoritib berildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, topshiriqlar tizimi va sun'iy intellekt asosidagi integratsiyalashgan model ingliz tili mashg'ulotlarida qo'llanilib, talabalarning og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish hamda kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur natijalar oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarning nutq faoliyatini rivojlantirish va ularda sun'iy intellekt texnologiyalari asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatda samarali foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ingliz tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha olingan natijalar:

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning lingvodidaktik imkoniyatlari kompetensiyaviy-integrativ yondashuv asosida aniqlashtirilgan, shuningdek, talabalarda gapirish ko'nikmasining lingvistik, diskursiv, pragmatik va sotsiolingvistik komponentlarini shakllantirishda Replika, TalkPal, Speechling, Cake va Kialo Edu

Elsa Speak, Speechace hamda Speechling platformalarining metodik imkoniyatlari kengligi asoslangan xulosalar va metodik tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutining 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSH elchixonasi hamda AQSH davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi № 2/24-4/7-690-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning talabalarning talaffuz aniqligi, leksik faolligi va muloqotda erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ois qismi didaktik materiallar bilan boyitilgan;

talabalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida kuzatiladigan ichki nutqni tashqi nutqqa chiqara olish muammosi CLT (kommunikativ til o‘qitish) va TBL (topshiriqlarga asoslangan ta’lim) metodikalarini sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan metodik yondashuv orqali bartaraf etish ilmiy jihatdan asoslangan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan RZ-202004165-raqamli “Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 3-noyabrdagi № 04/1-5303-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihada belgilangan sun’iy intellekt asosida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining pedagogik mexanizmlari takomillashtirildi;

sun’iy intellekt texnologiyalari vositasida ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kommunikativ mashqlar tizimi shaxsga yo‘naltirilganlik, onglilik, faollik, tizimlilik va ko‘rgazmalilik tamoyillari asosida ishlab chiqilib, AFTI texnologiyasi orqali oddiy nutqiy mashqlarni sun’iy intellekt platformalari bilan almashtirish, ulardan foydalanishni qulaylashtirish, metodik imkoniyatlarini kengaytirish hamda integratsiya qilish asosida takomillashtirilgan xulosalar xorijiy til va adabiyoti: inliz tili ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalari uchun “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” fani doirasida mo‘ljallangan “AI-Driven Approaches to Developing English Speaking Competence” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 19-dekabrdagi №3603-1769-44d7-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning ingliz tilida gapirish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy o‘quv-usuliy ta’minot yangi materiallar bilan boyitildi;

talabalarda sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish samaradorligi lingvistik, sotsiolingvistik, sotsiomadaniy, diskursiv hamda pragmatik baholash mezonlari va kompleks diagnostik tizim asosida isbotlangan xulosa va takliflar, interaktiv topshiriqlar tizimi “Nutq ko’nikmalari integratsiyasi” fanining amaliy mashg‘ulotlariga joriy etildi (Navoiy davlat universitetining 2026-yil 16martdagi 88-87-1893/03-son ma’lumotnomasi). Natijada metodik yondashuvni amalga oshirishda Replika, TalkPal, Kialo Edu, Cake, ELSA Speak, Speechace, Speechling kabi platformalardan foydalanildi. Talabalarning ingliz tilida spontan va izchil gapirish, talaffuz va nutq ravonligini takomilashtirish, bahs-munozarada fikrni asoslash kabi strategiyalarni qo‘llash, o‘z

nutqini tahlil qilish va takomillashtirish hamda sun’iy intellekt vositalaridan amaliy faoliyatda foydalanish ko’nikmalari rivojlantirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy-metodik ish chop ettirilgan. Jumladan, 2 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, shulardan, 11 ta respublika va 4 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Desertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning asosiy matni 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti yoritilgan, ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nilishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, izlanish natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan, chop etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati va dissertatsiyaning hajmi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ta’limni rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanishning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda gapirish ko‘nikmasini shakllantirishning nazariy-metodologik masalalari hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining lingvodidaktik imkoniyatlari xususidagi fikr-mulohazalar yoritilgan. Birinchi faslda ingliz tilining globallashuv sharoitida xalqaro muloqot vositasi sifatidagi o‘rni asoslab berilgan hamda chet tilini o‘rganishda og‘zaki nutqning yetakchi ahamiyatga egaligiga e’tibor qaratilgan. E.Solovyova, V. Ekk, M. Canale, M. Sveyn va J. Jalolovning qarashlarini qo‘llab-quvvatlagan holda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda quyidagi tarkibiy komponentlar muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash joiz: lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, sotsiomadaniy kompetensiya hamda pragmatik kompetensiya. Zotan, mazkur yondashuv davlat ta’lim standartlari talablariga ham mos keladi.

Har bir komponentning ta’lim tizimidagi ahamiyati umumiy kommunikativ kompetensiya darajasiga aloqador bo‘lib, ushbu komponentlar bir-biri bilan uzviylik kasb etadiki, ular talabalarda alohida-alohida rivojlantirilishi yoki o‘lchanishi yoki bir komponentdan ikkinchisiga ketma-ket o‘tish orqali rivojlanishi ham mumkin emas. To‘laqonli ta’lim jarayonida bir modul rivojlanishi boshqa modulga ta’sir qilib, kommunikativ kompetensiyaning umumiy darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur nazariy qarashlarni tizimlashtirgan holda tadqiqotimiz obyekti va maqsadidan kelib chiqib, ushbu tayanch tushunchalarga quyidagicha mualliflik yondashuvimizni shakllantirdik:

Kompetensiya – shaxsning ma’lum bir predmet yoki jarayonlarga nisbatan uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan, samarali faoliyat uchun zarur bilim, ko‘nikma, malaka

va usullar majmuyi, shuningdek, ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatidir. Bo‘lajak pedagoglar uchun ingliz tilida muloqot qilish va gapirish kompetensiyasi nihoyatda muhim, zero, ular nafaqat ta’lim oluvchilarga nazariy bilim berish, balki chet tilidagi jonli muloqotni samarali tashkil eta olishlari, fikrni erkin bayon qilishda namuna bo‘lishlari kerak. Gapirish kompetensiyasini rivojlantirish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirish va global axborot almashinuvi jarayonidagi faolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bizningcha, kommunikativ kompetensiya – talabaning muloqot jarayonida o‘ziga xos nutqiy uslub va yondashuvini, til va madaniyatlarni chuqur anglashini, shuningdek, har bir vaziyatga mos ravishda nutqiy modellarni to‘g‘ri qo‘llash malakasini o‘z ichiga olgan, doimiy ravishda shakllanib boradigan professional mahoratdir. Kommunikativ kompetensiya talabaning lisoniy identifikatsiyasini belgilab, uning raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellekt muhitida ham sifatli va samarali muloqotini ta’minlaydi

Yuqorida qayd etilgan kompetensiyalar kommunikativ kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi va ularning har biri ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy tajribalar ko‘rsatadiki, mazkur komponentlarning rivojlanish darajasi o‘quv jarayonida bir xil kechmaydi va ularni shakllantirish jarayonida turli darajadagi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu bois, ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda uchraydigan birlamchi va ikkilamchi qiyinchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda an’anaviy darslarda qo‘llaniladigan metodlarni tizimli tarzda tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Quyida mazkur jihatlar kompetensiyalar kesimida umumlashtirilishi berib o‘tilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Gapirish ko‘nikmasini an’anaviy ta’lim sharoitida rivojlantirishning turlari va qo‘llaniladigan metodlari

Kompetensiya darajasi	Kompetensiya turi	Asosiy qiyinchiliklar	An’anaviy metodlar
Birlamchi kompetensiyalar	Lingvistik kompetensiya	Talaffuz xatolari, grammatik noto‘g‘rilik, lug‘at yetishmasligi	Grammatika-tarjima metodi; Drill mashqlari; Fonetik takrorlash
	Diskursiv kompetensiya	Fikrlarni izchil bog‘lay olmaslik, mantiqiy ketma-ketlikning buzilishi	Savol-javob mashqlari; Matn asosida gapirtirish; Reja asosida hikoya tuzish
	Pragmatik kompetensiya	Nutq maqsadini to‘g‘ri ifodalay olmaslik, nutq aktlaridan noto‘g‘ri foydalanish	Boshqariladigan nutqiy topshiriqlar; Dialoglarni yozdirish; Namunaviy suhbatlar
Ikkilamchi kompetensiyalar	Sotsiolingvistik kompetensiya	Rasmiy va norasmiy uslublarni farqlamaslik	Rol o‘ynash; Situatsion dialoglar
	Sotsiomadaniy kompetensiya	Madaniy kontekstni tushunmaslik	Madaniy matnlar tahlili; Vaziyatli muloqot mashqlari

Ikkinchi faslda sun’iy intellekt texnologiyalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, sun’iy intellektning ta’lim sohasida, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari orqali ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq etilishi masalalari yoritilgan. Tadqiqotda sun’iy intellekt asosidagi tizimlarning nutqni aniqlash, tahlil qilish, avtomatik baholash va moslashtirilgan fikr-mulohaza berish imkoniyatlari ochib berilgan hamda ularning talabalarning gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.

Bobning uchinchi faslida sun’iy intellekt va lingvodidaktika integratsiyasining nazariy asoslari tahlil qilinib, kompyuter yordamida til o‘rgatish (CALL) tizimlarining sun’iy intellekt bilan boyitilishi natijasida ta’lim jarayonining interaktiv, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan modelga o‘tishi yoritilgan. Sun’iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiyalash talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda og‘zaki nutqni rivojlantirishda samarali ta’limiy muhit yaratishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida quyidagi sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi ham o‘quvchilar, ham pedagoglar uchun ta’lim samaradorligini oshiruvchi keng imkoniyatlar va innovatsion yondashuvlarni taqdim etadi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Ta’limda foydalanish mumkin bo‘lgan sun’iy intellekt nomlari va ularning mazmuni

t/r	Sun’iy intellekt nomi	Darsda qo‘llanilish xususiyatlari
1	Grok.com, co-pilot.com va chat gpt	Murakkab mavzularni soddalashtirib tushuntiradi, ilg‘or savollarga aniq, kontekstga asoslangan javoblar taqdim etadi, insholarni tekshirib bera oladi
2	Deepseek	Haqiqiy hujjatlar, maqolalar, (pdf) va manbalarni ko‘rsatib javob beradi
3	Diffit.com	Matnlarni o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasiga mos ravishda soddalashtirgan holda turli xil mashqlar yaratadi. Videolar uchun linklar ham bera oladi
4	Quizizz.com	Interaktiv testlar va viktorinalar yaratish orqali o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash va baholash imkonini beradi
5	Youtubevideosummarizer	Darslarda foydalaniladigan videolarning asosiy mazmunini qisqa va aniq tarzda umumlashtiradi, bu vaqt tejalishini ta’minlaydi
6	Assessment generator	Avtomatik test va baholash vositalarini yaratish orqali o‘qituvchilar yuklamasini kamaytiradi va baholash sifatini oshiradi
7	Magic school	Sun’iy intellekt asosida o‘quv rejalari, dars konspektlari va topshiriqlarni yaratishda yordam beradi
8	Napkin.com	G‘oyalarni tezkor vizual xaritalarga aylantirish imkonini beradi, bu fikrlashni faollashtirish va rejalashtirishda foydalidir
9	Ideamap.com	Kontseptual xaritalar va g‘oya tarmoqlari orqali dars mavzularining bog‘liqligini vizual ko‘rinishda aks ettiradi
10	Research rabbit	Ilmiy maqolalar orasidagi bog‘liqliklarni grafik tarzda ko‘rsatish orqali tadqiqot olib borishni osonlashtiradi
11	Dimensions.com	Ilmiy ma’lumotlar tahlili, bibliometrik ko‘rsatkichlar asosida manbalarni tahlil qilish imkonini yaratadi

Dissertatsiyaning **“Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi talabalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini sun’iy intellekt asosida rivojlantirish metodikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini zamonaviy raqamli yechimlar bilan uyg‘unlashtirish metodik va amaliy jihatdan yoritildi.Tadqiqot doirasida gapirish faoliyatini turli komponentlar kesimida (talaffuz, ravonlik, lug‘at boyligi, nutqiy aniqlik va muloqotga moslik) rivojlantirish uchun 7 ta sun’iy intellekt platforma tanlab olinib, ularning didaktik imkoniyatlari fan mavzulariga moslashtirilgan holda tajribada sinovdan o‘tkazildi.

Xususan, Replika, TalkPal, Kialo Edu, Cake, ELSA Speak, Speechace va Speechling platformalari dars jarayoniga integratsiya qilinib, har bir vositaning maqsadga muvofiq qo‘llanish yo‘nalishlari, mos metodlar bilan uyg‘unligi hamda real mashg‘ulotlardagi natijadorligi asoslab berildi. Quyida sun’iy intellekt platformalarining o‘rganuvchilarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan nutqiy kompetensiyalar hamda ularga mos metodik yondashuvlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tizimli ravishda umumlashtirib ko‘rsatiladi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Sun’iy intellekt platformalari asosida talabalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasi komponentlarini rivojlantirish

Sun’iy intellekt platformasi	Rivojlantiriladigan nutqiy kompetensiya	Sun’iy intellekt platformasiga mos metodlar
Replika	diskursiv	Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, reflektiv amaliyot (Reflective Practice)
TalkPal	pragmatik	Kommunikativ yondashuv, topshiriqlarga asoslangan ta’lim (Task-Based Learning)
Kialo Edu	diskursiv, pragmatik	Munozara metodi (Debating Method), tanqidiy fikrlash pedagogikasi (Critical Thinking Pedagogy)
Cake	lingvistik	Audiolingvistik metod (Audiolingual Method), tabiiy yondashuv (Natural Approach), jismoniy javob metodi (Total Physical Response – TPR)
Elsa Speak	lingvistik	Audio-artikulyatsion metod (Audio-Articulatory Method), talaffuzga asoslangan yondashuv (Pronunciation-Based Methods)
Speechace	lingvistik	Fonetik metodlar, ta’lim uchun baholash
Speechling	diskursiv, pragmatic, sotsiolingvistik	Individuallashtirilgan ta’lim (Individualization), teskari sinf modeli (Flipped Classroom), aralash ta’lim (Blended Learning)

Shu tariqa, ushbu bobda sun’iy intellektga asoslangan vositalarni bitta umumiy resurs sifatida emas, balki har biri ma’lum nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi maxsus didaktik imkoniyatga ega bo‘lgan platformalar majmuyi sifatida ko‘rib chiqish yondashuvi ilgari suriladi.

Mazkur bobning keyingi paragrafida oliy ta’lim muassasalari sharoitida talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutqini rivojlantirish masalasi sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq holda yoritildi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi CLT va TBL metodlari asosida takomillashtirilib, o‘qituvchi va talaba faoliyatining o‘zaro integratsiyasi hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari uyg‘unligida amalga oshirildi. Mazkur integratsiya orqali gapirish ko‘nikmasini shakllantirish jarayoni individuallashtirilgan, interaktiv va uzluksiz o‘quv muhitiga aylantiriladi. Tadqiqot doirasida “Kommunikativ til o‘qitish” (CLT) va “Topshiriqlarga asoslangan ta’lim” (TBL) metodlarining an’anaviy qo‘llanilish shakllari tahlil qilinib, ularni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish zarurati asoslandi.

Bunda ta’lim jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va natijaga yo‘naltirilgan holda tashkil etildiki, bunda talabalarning nutqiy faoliyati nafaqat kommunikativ, balki tahliliy va refleksiv jihatdan ham rivojlantiriladi. Mazkur integratsiya orqali gapirish ko‘nikmasini shakllantirish jarayoni individuallashtirilgan, interaktiv va uzluksiz o‘quv muhitiga aylantiriladi. Tadqiqot doirasida “Kommunikativ til o‘qitish” (CLT) va “Topshiriqlarga asoslangan ta’lim” (TBL) metodlarining sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashning ilmiy-metodik, pragmatik samarasi misollar asosida ko‘rsatib berildi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida CLT metodini takomillashtirish bir qadar samara beradi. Tadqiqotda kommunikativ til o‘qitish (CLT) yondashuvi talabalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning asosiy (tayanch) metodikasi sifatida belgilandi. CLTning samaradorligi talabaning real muloqot jarayonida til vositalaridan foydalanish layoqatini rivojlantirishi, nutqiy faollikni oshirishi hamda interaktiv muloqotni faollashtirishi bilan izohlanadi. Biroq oliy ta’lim amaliyotida CLT, ko‘pincha, rol o‘ynash, munozara yoki savol-javob faoliyatlari bilan cheklanib qoladi va bu holat nutqiy ko‘nikmaning tizimli shakllanishiga yetarli darajada xizmat qilmasligi ham mumkin. Shu jihatdan mazkur tadqiqotda CLT yondashuvi quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirildi:

kommunikativ vazifalarga nutq funksiyalarini (fikr bildirish, dalillash, aniqlashtirish, e’tiroz bildirish) tizimli integratsiya qilish;

muloqot strategiyalarini (parafraz qilish, aniqlashtirish, so‘rash, suhbatni davom ettirish) shakllantirish;

sun’iy intellekt asosida real vaqt rejimida muloqot tashkil etish orqali nutqiy faollikni oshirish.

Keltirilganlar natijada talabalarda nafaqat muloqotga kirishish, balki suhbatni davom ettirish, fikrni izchil bayon qilish va ravonlikni oshirishga xizmat qiluvchi amaliy nutqiy mexanizmlar ham shakllanadi. Shuningdek, CLT yondashuvi doirasida “avvalo ravonlik, so‘ng aniqlik” tamoyili sun’iy intellekt yordamida qo‘llab-quvvatlanib, xatolarni bosqichma-bosqich tahlil qilish va tuzatish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

“Topshiriqlarga asoslangan ta’lim” (TBL – Task-Based Learning) metodikasi tadqiqotda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning CLT doirasidagi vazifaga yo‘naltirilgan amaliy modeli sifatida talqin qilindi. Ushbu metodning didaktik

qiymati talabaning nutqiy faoliyatini real kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Oliy ta’lim amaliyotida an’anaviy TBL, ko‘pincha, topshiriqlarni bajarish bilan chegaralanib, ularning nutqiy natijalari va kommunikativ samaradorligi yetarli darajada tahlil qilinmaydi. Shu sababli mazkur tadqiqotda TBL metodikasi quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirildi:

har bir topshiriqni majburiy nutqiy faoliyat bilan bog‘lash (dialog, monolog, muhokama);

sun’iy intellekt vositalari orqali topshiriqlarni bajarish jarayonini interaktiv va kommunikativ muhitga aylantirish;

topshiriq natijalarini avtomatik tahlil qilish va individual metodik tavsiyalar bilan boyitish.

Natijada, topshiriqlar oddiy o‘quv faoliyatidan chiqib, talabaning kommunikativ va nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi samarali didaktik vositaga aylanadi. Talabalar muammoli kommunikativ vaziyatlarda fikr bildirish, dalillash, savol-javob olib borish va muloqotni boshqarish ko‘nikmalarini egallaydi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, CLT doirasida TBLning vazifaga yo‘naltirilgan tamoyillari sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanilib, talabalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning yangi metodik modeli taklif etildi. Sun’iy intellekt vositalari (Replika, TalkPal, Kialo Edu, ELSA Speak, Speechling va b.) orqali talabalarda nutqiy faollikni oshirish, real vaqt rejimida feedback olish, o‘z-o‘zini tahlil qilish hamda ichki nutqni tashqi nutqqa aylantirish jarayoni sezilarli darajada faollashadi. Ayniqsa, ichki nutqi shakllangan, biroq uni og‘zaki ifodalashda qiyinchilikka duch keladigan talabalar uchun sun’iy intellekt asosidagi interaktiv muloqot muhiti psixologik to‘siqlarni kamaytirib, erkin nutqiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu metodik yondashuv o‘qituvchi va talaba faoliyatining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida uchta o‘zaro bog‘liq didaktik bosqichda amalga oshiriladi. Mazkur bosqichlar ta’lim jarayonining izchilligi, tizimliligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida talabalarda gapirish ko‘nikmasini baholash jarayoni faqat yakuniy nutqiy natijalarni aniqlash bilangina cheklanmasligi, balki ushbu natijalarni shakllantiruvchi asosiy nutqiy tarkibiy qismlarni ham qamrab olishi zarurligi aniqlandi. Zero, baholash mezonlari asosida olingan natijalar talabaning nutqiy faoliyatini tashkil etuvchi lingvistik, pragmatik, diskursiv, sotsiolingvistik va sotsiomadaniy komponentlar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi (4-jadvalga qarang).

Tadqiqotda taklif etilgan baholash tizimining asosiy yangiligi CEFRning xalqaro mezoniy imkoniyatlarini sun’iy intellektning tezkor diagnostika va feedback imkoniyatlari bilan birlashtirib, ularni CLT va TBL asosidagi kommunikativ topshiriqlar hamda besh komponentli baholash mezonlari orqali yagona metodik tizimga keltirilganidadir. Tadqiqotda taklif etilgan baholash tizimining asosiy yangiligi CEFRning xalqaro mezoniy imkoniyatlarini sun’iy

intellektning tezkor diagnostika va feedback imkoniyatlari bilan birlashtirib, ularni CLT va TBL asosidagi kommunikativ topshiriqlar hamda besh komponentli baholash mezonlari orqali yagona metodik tizimga keltirilganidadir.

4-jadval

Sun'iy intellekt asosida talabalarning gapirish ko'nikmasini baholash mezonlari

№	Baholash mezoni	Asosiy baholash indikatorlari	CEFR B1–B2 bilan bog'liqligi	SI ning baholash jarayonidagi roli	Baholash shakli
1	**Lingvistik mezon**	Grammatik aniqlik; leksik boylik va moslik; talaffuz; fonologik aniqlik; nutqning tushunarliligi	B1 – tanish mavzularda yetarli grammatik va leksik vositalardan foydalanish; B2 – kengroq leksik-grammatik resurslardan nisbatan erkin va aniq foydalanish	Talaffuz, ayrim grammatik va leksik xatolarni aniqlash; tezkor feedback berish; qayta mashq uchun individual tavsiyalar	**Formative + Summative (yakuniy)**
2	**Sotsiolingvistik mezon**	Nutqning vaziyat, suhbatdosh, ijtimoiy munosabat va rasmiylik darajasiga mosligi; tegishli nutqiy vositalarni tanlash	B1 – tanish ijtimoiy vaziyatlarda mos muloqot qila olish; B2 – turli kommunikativ vaziyatlarda uslub va nutqiy vositalarni moslashtira olish	Kommunikativ vaziyatga moslik bo'yicha feedback; nutqiy variantlarni taqqoslash va takomillashtirishga ko'maklashish	**Asosan formative; summative – o'qituvchi ekspertizasi bilan**
3	**Diskursiv mezon**	Fikrlarning mantiqiy izchilligi; bog'lovchi vositalardan foydalanish; nutqning yaxlitligi va tuzilishi	B1 – fikrlarni sodda bog'lovchi vositalar yordamida izchil birlashtirish; B2 – fikrlarni rivojlantirib, murakkabroq bog'lovchi vositalar orqali yaxlit nutq yaratish	Nutqning mantiqiy yaxlitligi va grammtik bog'liqlilig jihatlarini tahlil qilish; pauza, takror va bog'lanishdagi kamchiliklar bo'yicha feedback	**Formative + Summative**
4	**Sotsiomadaniy mezon**	Madaniy me'yorlar; ijtimoiy qadriyatlar; murojaat shakllari; madaniyatlararo farqlarni hisobga olish	B1 – tanish madaniy va ijtimoiy vaziyatlarda asosiy me'yorlarga rioya qilish; B2 – turli madaniy kontekstlarda mos va ehtiyotkor kommunikativ xulq namoyon etish	Madaniy jihatdan nomaqbul yoki noaniq ifodalarni aniqlashga yordam berish; muqobil ifodalarni tavsiya qilish	**Formative + o'qituvchi ekspertizasi asosidagi summative**
5	**Pragmatik mezon**	Kommunikativ maqsadga erishish; fikrni aniq ifodalash; muloqot strategiyalaridan foydalanish; suhbatni boshlash, davom ettirish va yakunlash	B1 – oddiy kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish; B2 – fikrni rivojlantirish, asoslash va turli vaziyatlarda kommunikativ strategiyalarni samarali qo'llash	Kommunikativ topshiriq natijasini tahlil qilish; feedback orqali kommunikativ strategiyalarni takomillashtirishga yo'naltirish	**Formative + Summative**

Mazkur integrativ yondashuv talabaning gapirish ko'nikmasini aniqlash – tahlil qilish – feedback berish – qayta bajarish – yakuniy baholash – CEFR bilan qiyosiy talqin qilish ketma-ketligida baholash imkonini beradi. Shu tariqa,

baholash tadqiqotimizda faqat natijani o‘lchash vositasi emas, balki sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida talabaning nutqiy rivojlanishini diagnostika qilish, boshqarish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi integrativ metodik mexanizm sifatida talqin etildi.

Ushbu paragraf doirasida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayoni an’anaviy mashg‘ulotlar bilan cheklanmagan holda sun’iy intellekt platformalari (Replika, TalkPal, ELSA Speak, Kialo Edu, Cake, Speechace, Speechling) imkoniyatlarini metodik jihatdan moslashtirish asosida asoslab berildi. Shuningdek, metodikaning maqsadi, mazmuni va bosqichlari sun’iy intellekt bilan interaktiv muloqot, teskari aloqa (feedback) hamda nutqiy kompetensiyalarni izchil shakllantirish tamoyillari asosida tizimlashtirilib, amaliyotga tatbiq etish mexanizmi izohlandi. Shu asosda, soha mutaxassislari tomonidan tavsiya etilgan nutqiy mashqlar va zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlarini uyg‘unlashtirgan holda, gapirish ko‘nikmasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi

Ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi AFTI (almashtirish, foydalanish, takomillashtirish, integratsiya) texnologiyasi asosida tizimlashtirildi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, topshiriqlar sun’iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlariga muvofiq ravishda bosqichma-bosqich murakkablashib boradi va talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning uzviy ketma-ketligini ta’minlaydi.

AFTI texnologiyasi sun’iy intellekt asosida o‘qitish jarayonini loyihalash, tashkil etish va baholashga yo‘naltirilgan 4 darajali pedagogik model bo‘lib, u talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu model “almashtirish”, “foydalanish”, “takomillashtirish” va “integratsiya” bosqichlaridan iborat bo‘lib,

har bir bosqich ta’lim jarayonining murakkablashuvi va sun’iy intellekt vositalarining ta’sir darajasining ortib borishini ifodalaydi.

